

BOLALARNI ILK YOSHIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISH AHAMIYATI

Qambarova Dilnoza Sayid qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

Zubaydova Nilufar Ne'matullayevna

Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Abstrakt: *Glaballashgan dunyoda tillarni bilish muhim ahamiyat kasb etadi va bu bolalarni kichik yoshidan ularga ingliz tilini o'qitish kerakligini bildiradi. ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni o'rganish yoshlarni kelajakdagi hayoti davomida hech qanday qiyinchiliklarsiz hayot kechirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat qaramog'ida va xususiy maktabgacha ta'lim muassalarda ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu maqolada chet tillarni o'qitish ahamiyati xususan, ingliz tilini ilk bolalik yillarini o'qitish va uning ahamiyati haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, xorijiy til, erta yoshda til o'rganish, metodlar, aqliy faoliyat.*

Zamonaviy dunyoda har bir odam bilim olishi va yuksalishi zarur. Bu albatta hayotning ilk onlaridan boshlansa yanayam yaxshi bo'ladi va erta olingan bilim insonning umrini oxirigacha unutilmas yani toshga o'yilgan so'z kabi qoladi albatta. Hozirgi kunda chet tillarni o'qitishga bo'lgan qiziqish va talab yanayam, ortmoqda va bu ota- onalar va hattoki, kichik yoshdagi bolalarda ham uyg'ongan. Har bir inson tushunib yetganidek, kelajakning asosiy xorijiy tillarni bilishga bog'liq bo'lib qoladi va shu pog'onaga o'tishi asta asta boshlanmoqda. Xorijiy tillarni yoshlikdan o'rgatib boshlash bolada bir qancha ko'niqmalarni shakllantiradi.

Birinchi dan bolada aqliy rivojlanish qobiliyati shakllanadi. Bolaning miyasida rivojlanishi va o'zlashtirish imkoniyatlari, ayniqsa, dastlabki yillarida

juda yuqori bo'ladi. Xorijiy tilni o'rganish bolaning aqliy salohiyatini oshiradi, yangi so'zlarni eslab qolish, grammatik qoidalarni tushunish va tilning tuzilishini anglash bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Maktab yoshidagi bolalar tez va oson ingliz tilini o'rgana oladi, faqat ularga to'g'ri yo'nalishda bilim berish zarur.

Bilamizki, kichik yoshdagi bolalarda tez fikr almashinuvi bo'lani, misol uchun ularni bir yo'sinda ko'p vaqt olib o'tirish qiyin. Shu sababli o'qituvchi har xil metodlardan foydalanishi kerak, hamda ularda ishtiyoqni o'ldirmasligi lozim. Birinchidan, o'yinlar va faoliyatlar orqali o'rgatish. Ingliz tilini o'tgatishning eng samarali usullaridan biri hisoblanib, bolalar tilni o'rgatishida o'yinlar orqali faol ishtirok etishadi, bu esa ularni til o'rganishga rag'batlantiradi. Ikkinchidan, Bolalar yoshidan kelib chiqib, ular ko'proq visual va audial materiallarni qabul qilishadi. Shuning uchun rasmlar koptokchalar yordamida so'zlarni va iboralarni o'rgatish juda samarali. Uchinchidan, doimiy takrorlash va mustahkamlash zarur. Bolada yangi tilni o'rgatishda mustahkamlash muhim. Darslarda o'rgatilgan mavzularni va so'zlarni bolalar bilan tez-tez takrorlash kerak. Bu orqali bolalarning tilga bo'lgan ishonchi oshadi va ular o'rgangan bilimlarini uzoq vaqt eslab qolishadi. Yana bir unsurlaridan bittasi bu-yarim tuzilgan va erkin o'rgatish metodlari. Maktabgacha ta'limda ingliz tilini o'rgatishda faqat o'rgatishning strukturalangan usullari yetarli emas, shuningdek, bolaning shaxsiy ijodi va tabiatiga mos keladigan yondashuvlar ham muhim. Misol uchun erkin suhbatlar: bolalar bilan oddiy inglizcha suhbatlar o'tkazish, har kuni yangiliklar va o'rganilgan so'zlarni takrorlash.

Xulosa qilib aytamanki, maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tili darsining bolalarga foydalari ko'p va bunda ularni kelajakga kerakli foydalari mavjud. Bolada tilga bo'lgan qiziqishni orttirish kerak va to'g'ri metodlardan foydalanish kerak.

<https://cyberleninka.ru/article/n/chet-tili-fanlarini-oqitishda-interaktiv-hamda-integratsiyalashgan-metodlarning-amaliy-ahamiyati-va->

[samaradorligihttps://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish](https://cyberleninka.ru/article/n/til-o-qitishda-o-yin-metodidan-foydalanish)

<https://cyberleninka.ru/article/n/ingliz-tilini-o-rganishda-innovatsion-texnologiyalarning-o-rni>